monidan olib boriladigan ushbu tadbirlar o‘quvchilarga tilni faol o‘zlashtirish va qayta ishlashga imkon beradi .

Xulosa va takliflar. Xullas, til – belgilar tizimiga asoslangan muloqot shakli. Ammo tilni tushunarli qiladigan omil bu tildan ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga asosan muloqotga kirisha olish qobilyatini egallshdir. Ingliz tili chet tili hisobanadigan O‘zbekiston sharoitida o‘quvchilar bu tilning lingvistik, madaniy va tarixiy kelib chiqishi bo‘yicha tajribaga ega emaslar. Bundan tashqari, ular ingliz tilini faqatgina o‘quv xonalarida qo‘llash bilan cheklanadilar. Shuningdek, o‘quvchilarning ingliz tilidagi mavjud bilimlari va darsda o‘zlashtirilgan yangi bilimlar o‘rtasida aloqadorlik, ko‘pincha, uzilib qolgan. Talabalarning til haqidagi bilimlarini shakllantirishdagi to‘siqlarni yumshatishga til ta’limiga kognitiv yondashuv orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://kun.uz/news/2024/11/13

(2). Kenneth R.Rose, Gabriele K. Pragmatics in language teaching. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, p. 18.

(3). Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. М., МГУ, 1982, с. 128.

(4). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Ж., “Сангзор”, 2006, 92-бет.

(5). Safarov Shaxriyor. Til nazariyasi va lingvometodologiyasi. Monografiya, T., “BAYOZ”, 2015, 216-bet.

(6). Boers F., Lindstromberg S. Cognitive linguistic approaches to teaching vocabulary and phraseology. Berlin, Mounton de Gruyter, 2008, p. 25.

(7). Kasper Gabriele. Pragmatik transfer. Second Language Research, Volume 8(3), 2001, p. 207.

(9). Krashen S.D. Second Language Acquisition and Second Language Learning. Oxford: Pergamon, 1981, p. 18.

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi assistenti; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com; UO‘K 8.81.81-13.81’23)

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MEXATRONIKA YO‘NALISHI TALABALARINING PRODUKTIV KO‘NIKMALARINI INTERFAOL-AXBOROT MUHITIDA TAKOMILLASHTIRISH SHARTLARI

Annotatsiya. *Ingliz tilini mexatronika yo‘nalishi talabalari uchun o‘qitishda produktiv ko‘nikmalarini takomillashtirishda interfaol-axborot muhitidan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy talablaridan biridir. Bu yo‘nalishda talabalar nafaqat tilni bilishlari, balki o‘z sohalari bilan bog‘liq texnik atamalar va tushunchalarni ingliz tilida aniq va to‘g‘ri ifodalashni o‘rganishlari kerak.*

Kalit so‘zlar: *mexatronika, produktiv ko‘nikma, interfaol metod, integratsiya, motivatsion yondashuv.*

Бегимова Гулшода Жахон кызы (Каршинский Инженерно-экономический институт, ассистент кафедры иностранных языков; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОДУКТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ПО МЕХАТРОНИКЕ В ИНТЕРАКТИВНО-ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *Использование интерактивно-информационной среды в обучении английскому языку студентов по направлению «мехатроника» является одним из ключевых требований современного образовательного процесса. В этом направлении студенты должны не только овладеть языком, но и научиться точно и правильно выражать технические термины и понятия, связанные с их профессиональной областью, на английском языке.*

Ключевые слова: *мехатроника, продуктивные навыки, интерактивный метод, интеграция, мотивационный подход.*

Begimova Gulshoda Jahon qizi (Karshi Engineering-Economics InstituteAssistant at the Department of Foreign Languages; e-mail: begimovagulshoda84@gmail.com)

CONDITIONS FOR IMPROVING THE PRODUCTIVE SKILLS OF MECHATRONICS STUDENTS IN AN INTERACTIVE-INFORMATION ENVIRONMENT IN TEACHING ENGLISH

Annotation. *The use of an interactive information environment to enhance productive skills in teaching English to students of mechatronics is one of the main requirements of the modern educational*

process. In this field, students need to not only know the language but also learn to accurately and correctly express technical terms and concepts related to their specialty in English.

Keywords: *mechatronics, productive skills, interactive method, integration, motivational approach.*

Kirish. Muhandislikning zamonaviy dunyo qurilishida katta ta'sir ko'rsatayotgan sohalaridan biri bu, albatta, "Mexatronika muhandis"ligidir. Mexatronikaga ko'plab ta'riflar mavjud bo'lib, ularning askariyati mexanika, elektronika va kompyuter texnologiyalarining integratsiyasini tushuntiradi. Mexatronika muhandisi – mexatronik tizimlarni ishlab chiqish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan, mamlakat sanoatini rivojlantirish orqali dunyo standartlariga mos ishlab chiqarish darajasiga erishishga hissa qo'shadigan mutaxassisdir.

Qanday qilib mexatronika muhandisi uchun sanoat rivojlanishining ortib borayotgan talablari va mutaxassis uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni qondiradigan mexanik va elektron muhandislik, kompyuter va avtomatik boshqaruv bilimlarining muvozanatini yaratish mumkin? Ushbu maqolada ushbu va boshqa savollarga javoblar taqdim etilgan.

Tadqiqot metadologiyasi. Mamlakatimizda ko'zga ko'ringan yetuk olimlardan O'.Hoshimov, I. Yoqubov, J.J.Jalolov, I.M.Tuxtasinov, J.F.Yo'ldoshev va boshqa olimlarning xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilmiy ishlari mavjud. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini chet tiliga o'qitish metodikasi va produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar ham o'rganildi [1; 320-b.]. Jumladan, B.Xoliyorov, F.M.Rashidova, B.G.Kulmatov, F.Sh.Alimov, S.Nazarova, D.M.Isroilova ishlarida ushbu masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan [2;21–22-b.]. Oliy o'quv yurtlarining mexatronika yo'nalishlari talabalarida produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish, nofilologik oliy ta'limi paradigmalarining o'zgarishi va pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish, har bir talabaning intellektual qobiliyatini hisobga olish hamda interfaol vositalar orqali produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi. Interfaol-axborot muhitida o'qitish, asosan, talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Bunda quyidagi interfaol texnologiyalar qo'llaniladi:

1. Onlayn platformalar: Zoom, Google Classroom, Moodle va boshqa o'quv platformalari orqali talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishlari, o'zaro va o'qituvchi bilan savol-javob qilishlari mumkin.

2. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar: mexatronika yo'nalishidagi texnik bilimlarni o'zlashtirish uchun talabalarga maxsus virtual laboratoriyalar va simulatsiyalar taqdim etiladi. Bu usullar talabalarga real texnik holatlarni ingliz tilida tushuntirish va ularga yechim topishga yordam beradi.

3. Veb-resurslar va multimedia vositalari: texnik lug'atlar, audio va video materiallar, texnik maqolalar va hisobotlar orqali o'quv jarayoni interfaol tarzda tashkil etiladi. Bu o'quv resurslari til ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega [3;309-b.].

Produktiv ko'nikmalar (gapirish va yozish) interfaol o'quv muhitida quyidagi usullar orqali rivojlantirilishi mumkin:

– yozma ko'nikmalar: texnik ingliz tilida qisqa texnik eslatmalar, hisobotlar yoki prezentatsiyalar tayyorlash orqali. Bunda talabalar o'z g'oyalarini aniq va to'g'ri ifodalashga o'rganadilar;

– og'zaki ko'nikmalar: texnik prezentatsiyalar qilish, loyiha himoyalash va guruhli muhokamalar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar;

– vaziyatli topshiriqlar va rolli o'yinlar: talabalarga texnik masalalarni ingliz tilida muhokama qilish va ularga yechim topishga qaratilgan rolli o'yinlar va topshiriqlar beriladi. Bu talabalar uchun shaxsiy hamda kasbiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Muhokama. Mutaxassislar tanlagan soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, ingliz tili o'qitish jarayonida kerakli interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'lajak kadrlarni til o'rganish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Bunda muqobillik usullaridan ham foydalanish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni boshqa davlatlarning ta'lim tizimidagi muqobil uslublar, masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning – Mazmun va tilni integratsiyalashgan o'qitish) uslubini qabul qilish yo'li bilan talabalarda til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, produktiv ko'nikmalarni shakllantirishda interfaol metodlardan turli kombinatsiyalarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz. Uslubiyotchi olimlarimizdan J.Jalolov ta'kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash orqali yoki matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrlari bayoni orqali tushunishlari yanada osonroq amalga oshadi hamda o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, talabalarda lug'at boyligini ortishiga, ingliz tilida to'g'ri fikrlashlariga yordam beradi [4;152-b.].

Ushbu maqola orqali ingliz tilini interfaol-axborot muhitida o‘qitish natijasida talabalar texnik sohada ingliz tilidagi bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Til o‘rganishda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko‘nikmalarning har birining o‘rni katta. Shunday ekan, ularni o‘zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Tinglab tushunish va o‘qish passiv (qabul qiluvchi) ko‘nikmalar hisoblanadi, chunki ular yordamida til materiali ijod qilinmaydi, aksincha, ular o‘zgalar tomonidan ijod qilingan materialni qabul qilib olishga yordam beradi. Gapirish bilan yozish esa aktiv (ijod qiluvchi) ko‘nikmalar hisoblanadi, chunki bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma gaplar shaklida til materiali yordamida ifodalaydilar. Shunday qilib, aktiv va passiv ko‘nikmalar, bir paytning o‘zida, namoyon bo‘lmaydi. Gaprishdan oldin tinglash, yozishdan oldin o‘qish talab qilinadi (yoki aksincha). Tinglab tushunish (listening) – bu o‘rganuvchi tomonidan eshitish ko‘nikmasining yaxshi o‘zlashtirilishi hisoblanadi. Tinglab tushunish ko‘nikmasi orqali o‘quvchilar o‘zlarining eng yaxshi taraflarini shakllantiradi. Tinglab tushunish eshitish qobiliyatini yuksaltiradi. Ingliz tili darslarida quyidagi usullar orqali eshitish ko‘nikmasini yaxshilash mumkin [5;103–104-b.]:

1. Guruh o‘yinlari (Mock).
2. Audio o‘yinlar (Li-li).
3. Video o‘yinlar (Cinema class).
4. O‘z-o‘ziga gapirish (I and you).

Natija. Tinglab tushunishni o‘zlashtirish til o‘rganuvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishib o‘rganishi darajasiga ko‘tarildi. Bugungi axborot vositalari yuksak taraqqiy etgan davrda bizning Vatanimizda ham ingliz tilida tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish va mahoratlarini rivojlantirishda ausentik materiallardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Tinglab tushunishni o‘rgatishga qaratilgan topshiriqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– muvaffaqiyatli tinglab tushunish til (vaziyat)ni to‘la tushunishni ta’minlaydi;
– ravon va bexato gapirishga xizmat qiladi;
– o‘quvchilarning nutq vaziyatiga to‘g‘ri baxo berishiga yordam beradi;
– o‘quvchilarning suhbatdoshi bildirayotgan fikrlariga munosib javob berish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
– mazmunni to‘la anglab yetishga yordam beradi;
– yangi materialda berilayotgan yangi tushuncha va mazmunni o‘zlashtirishda foydali;
– mavjud bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;
– suhbatdoshining ishonch va hurmatiga erishishga yordam beradi [6;553-b.].

Til va nutq hodisalari umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, invariant variantlilik tushunchalari bilan uzviy bog‘lanadi. Umumiylik va xususiylik dialektikasi to‘g‘risida gapirganda, Gegelning bir iborasini eslash o‘rinlidir. Biz gilos, olma, o‘rikni yeymiz, hech qachon mevani yeya olmaymiz. Yoki V.M.Solnsev ta’kidlaganidek, yilqi ichidagi qaysi otni boshqa otga nisbatan invariant deb hisoblash mumkin. Tabiiyki, hech qaysisini, faqat ularning bittasini «namuna» deb e’tirof etish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gapirish (speaking) – ushbu ko‘nikma bevosita muloqot orqali shakllanuvchi ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma suhbat qurish orqali amalga oshadi. Asosan, bu ko‘nikma grammatikani tushungan holda amalga oshiriladi. So‘zlovchilar audiolarni qo‘yib, tinglashni kuchaytirishlari mumkin. Bu usul orqali ularning lug’at tizimi rivojlanadi. Bu voqealarning ko‘pchiligi real hayotiy vaziyatlardir. Ular shulardan foydalanadilar. Zamonaviy o‘qituvchilar til muammosini hal qilishi uchun, o‘quvchilarning nutqiy malakalarini oshirishi uchun quyidagi o‘yin va yo‘llarni qo‘llaydilar: Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tili o‘rganuvchisi mana shu yuqoridagi to‘rtta ko‘nikmani o‘zlashtirsagina ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi, o‘zi uchun ham foydali saboqni olgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Xotamov J.S. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar”. Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari. Dekabr 2021, 320-bet.

(2). Xoliyorov B.H. “Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiyasini rivojlantirish”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiyasi, Samarqand, 2021, 21–22-betlar.

(3). Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. док.пед.наук, Т., 2017, с. 309.

(4). J.Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012, 152-bet.

(5). Greeenalls and M.Swan. 1986. Effective Reading. Cambridge. Cambridge University Press, p. 103–104.

(6). Begimova G.J. “Leksik sath birliklari tavsifi”. “NamDU Ilmiy axborotnomasi”, 2024, 5-son, 553-bet.